

## **XITOI BUDDAVIYLIGI SHAKLLANISHIDA MARKAZIY OSIYO MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI**

*Mamatqulova Nilufar Xusanovna*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi*

[\*mamatqulovanilufar1991@bk.ru\*](mailto:mamatqulovanilufar1991@bk.ru)

**ANNOTATSIYA** *Ushbu maqolada Xitoy buddaviyligi ta'limoti shakllanishida Markaziy Osiyo madaniyatining ta'siri va ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi Buddaviylikning madaniy obidalari va ularning o'ziga xos jihatlari bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Budda, Hindistonda, Xitoy, Markaziy Osiyo, xinayana va maxayana yo'nalishlari, Kushon imperiyasi, Kanishka, Tepe Naranj, Bomiyon, Xona, Tolo Sardor, Tolo Shotor, Taxte Rustam, Mis Aynak, Chahil Gundi, Tepe Kafiriyat, Vaybxashika, Sautrantika, Madxyamika, Yogachara.*

**АННОТАЦИЯ** *В данной статье рассматривается влияние и значение среднеазиатской культуры в формировании китайского буддизма. Также описаны памятники культуры буддизма в Центральной Азии и их уникальные аспекты.*

**Ключевые слова:** *Будда, Индия, Китай, Средняя Азия, направления Хинаяны и Мааны, Кушанская империя, Канишка, Тепе Нарандж, Бамиан, Хана, Толо Сардар, Толо Шотор, Такте Рустам, Медное Стекло, Чахил Гунди, Тепе Кафирият, Вайбхашика, Саутрантика, Мадхьямика, Йогачара.*

**ABSTRACT** *This article discusses the influence and importance of Central Asian culture in the formation of Chinese Buddhism. Also, the cultural monuments of Buddhism in Central Asia and their unique aspects are described.*

**Key words:** *Buddha, India, China, Central Asia, Hinayana and Maaana directions, Kushan Empire, Kanishka, Tepe Naranj, Bamiyan, Khana, Tolo Sardar, Tolo Shotor,*

*Takte Rustam, Copper Glass, Chahil Gundi, Tepe Kafiriyat , Vaibhashika, Sautrantika, Madhyamika, Yogachara.*

Buddizm jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursat kelganda, ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlari davrida, Shri Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfutsiychilari davrida mazkur hududlarga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) — «uch savat» ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari — Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vishya matnlari – Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, Tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan<sup>1</sup>.

Shunday qilib, buddizm mil. av. birinchi ming yillik oxirlarida Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O'ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzalaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlaridan Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilganini anglash mumkin.

---

<sup>1</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History,Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 45

Afg'oniston hududida mazkur davrga tegishli buddaviylik madaniy obidalari va yodgorliklari saqlanib kelmoqda. 2010 yilda Afg'onistonning Logar viloyatida 42 ta buddaviylikka tegishli yodgorliklar topilgan edi. Afg'oniston hududida Tepe Naranj, Bomiyon, Xona, Tolo Sardor, Tolo Shotor, Taxte Rustam, Mis Aynak, Chahil Gundi, Tepe Kafiriyat kabi buddaviylikka xos bo'lgan madaniy obidalar va yodgorliklar mavjud.

Bomiyondagi buddaviylik monastiri kutubxonasi, 55 metrli va 37 metrli Buddha haykallari jahonda mashhur buddaviylik yodgorliklaridan edi. 2001 yilda Tolibon hukumati Bomiyondagi Buddha haykallarini portlatib yubordi. Mazkur yodgorliklar milodiy VI asrda bunyod etilgan.

O'rta Osiyoda dinlar tarqalganligi manzarasi rang-barang va tadqiq qilish uchun o'ta qiziqarli. Bu mintaqada boshqa qadimiy dinlar bilan bir qatorda buddizmning ham keng yoyilganligini kuzatamiz.

Bir guruh tadqiqotchilar mazkur din O'rta Osiyoga kirib kelishini Kushonlar shohi Kanishka xukmronligi davriga taalluqli deb biladilar (I asrning oxiri – II asrning boshlari). Ikkinchi guruh esa bu jarayonning boshlanishini biroz ertaroq, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi B.A. Litvinskiyning fikricha, buddizm Shimoli-G'arbiy Hindiston va Janubiy Afg'oniston (Qandahor) orqali taxminan mil. av. III asrda Baqtriyaga (O'zbekistonning janubiy hududlari) tarqala boshlagan.

Baqtriyaga buddizmning kirib kelishi va yoyilishi haqida boshqa fikr ham mavjud. Tadqiqotchi R.Ch. Bagchi bu jarayon podshoh Ashoka (mil. av. 273-232 yillar) hukmronligi davrida yuz bergan, deb hisoblaydi. Ammo bu fikrni tasdiqlovchi arxeologik materiallar yetarli emas. Shuning uchun ham buddizm bu hududga Kushonlar davrida kirib kelgan, degan fikr haqiqatga yaqinroq. Chunonchi B.Ya. Staviskiy bu fikrni Kushonlar hukumatining hind viloyatlari va buddist jamoalarning homiylari bilan aloqalari mustahkam bo'lganligi bilan isbotlaydi. Ammo shu bilan bir qatorda baqtriyaliklarning Kanishkaga qadar buddizm bilan tanish bo'lganliklarini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham mavjud.

Mil. av. I asr va milodning IV asrlari oralig'ida Kushon imperiyasida buddizmning Maxayana yo'nalishi davlat dini deb e'lon qilindi. Bungacha buddizm Hindistonda uzoq tarixga ega bo'lsa-da, u yerda asosiy yo'nalish bo'lgan Xinayana ham bunday mavqega erishmagan edi<sup>2</sup>. Kanishka, Vima, Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddizmni keng yoydilar. Ular bu din an'analari amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o'rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolosog'un, Qoshg'ar va boshqa shaharlarda buddizm takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxolarini qurib, buddizmning muqaddas kitoblari, sutra va pastirilarni o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratib berdilar.

Buddizm Markaziy Osiyoni hind madaniyati bilan tanishtirishda xuddi "ko'prik" xizmatini ado etgan. Bu dinning keng tarqalishi bilan Hindiston va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida o'zaro munosabatlar rivojlanib ketdi. Bu o'zaro aloqalar bir yoqlama bo'lmasdan, balki Hindistonda ham Markaziy Osiyo madaniyati izlari borligi namoyon bo'lmoqda. Masalan, Hindistondagi ko'pchilik qo'shin, harbiy va ma'muriy amaldorlar o'rta osiyoliklardan tayinlangan. Yana bu madaniyatning izlari – Yunon alifbosiga asoslanib Kushon yozuvida bitilgan Baqtriya tili, kiyim-kechak xillari, cholg'u asboblari va raqslari ham kirib bordi.

Yodgorliklarda tangalar ibodatxonaning Kushon podsholaridan Kadfiz I (eramizning I asri) davrida zarb qilinganligidan darak beradi. Xonalar ichida ganchdan tayyorlangan haykallar maydalanib, markaziy qismi "shoxlar zali" deb nomlangan, chunki u yerda haykallar buddaning izzatlovchi podsho xonadonidagi va unga yaqin kishlarni ifodalaydi. Bu xonaga maxsus yo'laklar orqali kirilib, qolgan xonalarda oziq-ovqat saqlangan va ba'zilarida koinlar (monaxlar) istiqomat qilganlar.

"Shoxlar zali" yonida Buddha haykali o'rnatilgan supaning poydevori saqlanib qolgan, u asosan xom g'isht va paxsadan ishlangan. Haykallar aksariyat "shoxlar zali" va unga boradigan yo'lakdan topilgan, bizgacha yetib kelgan haykallar bir-biridan ajoyib va

---

<sup>2</sup> [Альбедиль М. Ф.](#) Буддизм: религия без бога. — СПб.: Вектор, 2013. — С.32.

nodir. Ularda podshoh, shahzoda, amaldorlar, Budda, uning muxlislari, shogirdlari va izdoshlari tasvirlangan<sup>3</sup>.

Shahzodaning haykalida uning qimmatbaxo toshlar qadalgan maxsus tayyorlangan och ko'k rangli uzunchoq kulohi va yuz tuzilishi ustalik bilan ishlangan kushon podshohlaridan biri II asrda hukmronlik qilgan Vasudeva o'zi zarb qildirgan mis tangalarda xuddi shunday kulohda tasvirlangan edi. Ikkinchi haykal esa kattaroq, uzunligi 1 metrga teng, uni aslida bo'lak-bo'lak holda xonaning u yer-bu yeridan topilib, San'atshunoslik institutining tajribali haykaltarosh ta'mirchilari uni avvalgi holiga qaytardilar. Uning ustki kiyimi Kushon imperiyasi amaldorlarining libosini ifodalab, yuzi va shalvari qip-qizil rangda, mo'ylovi, sochi, osilib turgan belbog'i qora rangda.

Jahon sivilizatsiya tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan budda dini va uning keng tarqalishi hamda Budda e'tiqodlarining keng yoyilishida Dalvarzin shahri muhim o'rin egalladi. Keng tarqalgan dinlardan bo'lgan Buddaviylik inshootlari Dalvarzin shahari devoridan yarim chaqirim uzoqlikda joylashgan, Budda dinini Kushon hukmdorlari o'z homiyligiga olishgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Dalvarzin shahridagi bu ikkala budda inshooti juda hashamatli va dabdabali bo'lib, shaharni dushman qamal qilib turganda ham.

Kanishka ko'plab budda inshootlarini qurdirdi, poytaxtda buddaviylarning diniy yig'ilishini o'tkazdi. Uning zarb qilgan tangalarida boshqa xudolar bilan bir qatorda, Buddaning tasviri va BOODOO degan yozuv ham bitilgan edi. U hatto davlat boshqarish apparatida maslahatchi sifatida budda koxinlaridan ham foydalandi. Kushon podshohlari bu dinni qabul qilish va boshqalarni shu dinga bo'ysundirish uchun o't qo'yib, qilich o'ynatib, boshqa dinlarga oid ibodatxonlarni yer bilan yakson qilmadilar. Bu ishni juda ustalik bilan ishontirish yo'li bilan amalga oshirib, kohinlar o'z ilmi va harakati bilan xalqni o'z ta'siriga o'tkazdilar. Ana shunday budda tashviqotchilaridan biri termizlik (ya'ni "tarmitalik") Dxarmamitra boshliq tashviqotchilar, hatto bu dinni sharqiy Turkiston va Xitoyga va boshqa joylarga tarqatdilar. Kushonlar imperiyasida Budda

---

<sup>3</sup> Радхакришнан С. Индийская философия. В 2 томах. 1 том. М.: "Миф", 1993. – С. 510.

dini yagona davlat dini bo'lmagan, balki har qaysi elatning o'zi hohlagan dinlari bo'lib, ular o'z xudolariga ishonar va sig'inar edi<sup>4</sup>.

Buddizmning qulayligi yana shundaki, budda ibodatxonalariga yangi kelganlar nafaqat diniy risolalar va kitoblar o'qishar, balki shu bilan birga, dunyoviy adabiyotlar – tibbiyot, grammatika, musiqa, yer, osmon, shamol va yulduzlar haqida, rassomlik va she'riyat ilmlarini o'rganishar edi. Shuning uchun ham, buddizm tadqiqotchilarining fikricha, buddizm o'zining 2500 yillik tarixi davrida ibodatxonalarni qurishda, haykaltaroshlik va rassomlik sohasida, diniy-falsafiy risolalar yaratishda, targ'ibotchilikda va ziyoratchilikda, yirik buddizm mutafakkirlari sonining ko'pligi jihatidan Kushon imperiyasidek yuqori darajaga erishmagan. Hatto xorazmlik alloma Abu Rayhon Beruniy ham buddizm haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: “O'tmish zamonlarda Xuroson, Fors, Eron va Mosuldan to Suriyaning chegarasigacha yashagan aholi buddaviy diniga sig'inar edi. Ammo keyinchalik Zoratushtra (Zartushtra) ta'limoti Gushtaspa yoqib, uni mag'rib va mashriqda tarqata boshladi. Chin mamlakatidan to Rum yerlariga qadar otashparastlik ibodatxonalarini qurildi”.

Buddaviylikning O'zbekiston va Xindiston xalqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'priklarni bo'lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do'stlik va birodarlikning ildizlari u davrga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uning madaniyat va san'atiga qiziqishi tasodifiy emas.

I-V asrlar davomida to'rtta asosiy falsafa yo'nalishi uzil-kesil tashkil topgan edi: Vaybxashika, Sautrantika, Madxyamika, Yogachara. Keyingi vaqtda tashkil topgan vidjnyanavada-yogacharlar orasida Dignava va uning izdoshi Dxarmakirti tomonidan ishlab chiqilgan buddaviylik mantig'i va bilish nazariyasining kelib chiqishi muhim voqea bo'ldi. Dxarmakirtining “Pramanavartika” asari Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston va Yaponiya falsafiy adabiyotini boshlab bergan edi. Gupta davrining oxiri va ayniqsa Pala sulolasi davrida (VIII-IX asrlar) buddaviylikning ta'siri zaiflashgan edi. Nalanda

---

<sup>4</sup> Wu, Jiang and Chia, Lucille, ed. Spreading Buddha's Word in East Asia: The Formation and Transformation of the Chinese Buddhist Canon. New York: Columbia University Press, 2015. – P.76.

universitetining inqirozga yuz tutishi buning natijasi edi. Buddaviylik va braxmanlikning yaqinlashishi yangi din bo'lgan hinduviylikning paydo bo'lishiga olib keldi. Hindistonda o'z hukmronlik mavqeini yo'qotgan buddaviylik Seylon, Birma, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarga keng yoyildi<sup>5</sup>.

Xitoyga buddaviylikning kirib kelishi va Xitoy buddaviylik an'alarining shakllanishi Xitoy tarixida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yaqqol misoli bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xitoy va hind madaniyatining o'ziga xos sintezi mahsuli bo'lgan Xitoy buddaviylikning bu mamlakatdan Uzoq Sharqning barcha mamlakatlariga (Koreya, Yaponiya, Vetnam) tarqalishi diqqatga sazovordir<sup>6</sup>. Xitoy buddaviylik bu mamlakatlarga o'z yozuv tizimidan tashqari buddaviylikka xos bo'lmagan xitoy madaniyatining yo'nalishlari va xususiyatlarini ham olib kirdi. Shu tahlilda buddaviylikning "to'rt dengiz" osha tarqalishi Uzoq Sharq tarixiy-madaniy mintaqasining shakllanishiga va o'ziga xos tamaduniy jarayonning kechishiga hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'sir ko'rsatdi<sup>7</sup>. Xitoy, aynan, buddaviylikni targ'ib qilish chog'ida ilk marta asosiy xususiyatlar va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan "begona" dunyoqarash bilan to'qnashdi.

Xulosa sifatida shuni keltirish mumkinki, Buddaviylik uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab jarayon, ya'ni Xitoyga madaniy jihatdan moslashuv natijasida ushbu jamiyatga abadiy singib ketdi va xitoycha dunyoqarashning ko'plab muhim yo'nalishlarini o'zgartirdi. Buddaviylik tarkiban mutlaqo yangi madaniy jihatni Xitoyga olib kirdi, xitoy madaniyati bu jihatni ming yillar mobaynida o'zlashtirdi, moslashtirdi va natijada ushbu madaniy sintezning hosilasi sifatida neokonfutsiylik, yangi konfutsiylik tizimi shakllandi. Buddaviylikning o'zi esa bu jarayonda katta o'zgarishlarga uchradi va maxayana an'analari doirasidagi buddaviylik konfessiyasiga aylandi. Shuning uchun ham buddaviylik an'alarining Xitoyda qaror topishi jarayoni asosli ravishda

---

<sup>5</sup> Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. – С.62.

<sup>6</sup> Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. – С.96.

<sup>7</sup> Wu, Jiang and Chia, Lucille, ed. Spreading Buddha's Word in East Asia: The Formation and Transformation of the Chinese Buddhist Canon. New York: Columbia University Press, 2015. – P.79.

“Buddaviylikning xitoylashuvi”(chjungoxua) deb nomlandi. Buddaviylik hind madaniy an'analarining bir butunlikdagi yagona vakili sifatida buddaviylikning paydo bo'lishidan avval ham ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan Xitoy tamaddunining mahobatiga teng kela olmasdi. Shuning uchun Buddaviylik o'zi ta'sir qilayotgan Xitoy madaniyatidan ko'ra ko'proq o'zgarishlarga uchradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. 中国佛小时 Chjungo fotszyao shi (Xitoy Buddaviyligi tarixi). T. 1. Pekin, 1982. 38-bet
2. Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. 230 с.
3. 换产花 。佛小个迅带 Xuan Chanxua. Fotszyao geszun da i (Xitoy Buddaviyligi maktablari ta'limotlarining mohiyati). Taybey, 1973. 138-bet
4. [Торчинов Е.А.](#) Введение в буддологию. Курс лекций. — СПб.: [Санкт-Петербургское философское общество](#), 2000. 304 с.
5. Чебунин А. В. История проникновения и становления буддизма в Китае: [монография]. — Улан-Удэ: Изд.-полигр. комплекс ФГОУ ВПО ВСГАКИ, 2009. 278 с.
6. Xusanovna, M. N. (2021). XITOI BUDDAVIYLLIGINING CHAN MAKTABI (CHAN SZUN) HAQIDAGI MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 738-744.
7. Sulaymonov, J. B. (2021). XITOI BUDDAVIYLLIGI TA'LIMOTIDA BORLIQ VA BILISH MUAMMOLARINING QO 'YILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 572-579.